

"ACWA Power" xalqaro energetika kompaniyasi boshqaruvi raisi Toshkent viloyatidagi yashil vodorod ishlab chiqarish korxonasiga tashrif buyurdi

// 12.06.2025

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/acwa-power-xalqaro-energetika-kompaniyasi-boshqaruvi-raisi-y>



"ACWA Power" xalqaro energetika kompaniyasi boshqaruvi raisi Muhammad Abunayyan Toshkent viloyatining Chirchiq shahridagi yashil vodorod ishlab chiqarish korxonasiga tashrif buyurdi.



Mazkur loyiha "O'zkimyosanoat" AJ va Saudiya Arabistonining "ACWA Power" kompaniyasi "ACWA Power UKS Green H2" qo'shma korxonasi negizida amalga oshirilmoqda. Loyiha bo'yicha yiliga 3 ming tonnadan ortiq yashil vodorod ishlab chiqariladi va mineral o'g'itlarga qayta ishlanadi.

Uning doirasida korxonani qayta tiklanuvchi energiya bilan ta'minlaydigan 52 MVt quvvatga ega shamol elektr stansiyasini qurish ham ko'zda tutilgan.



Ta'kidlash joiz, mazkur loyiha mamlakatimizda "yashil energetika"ni rivojlantirish va iqtisodiyotga energiya tejamkor texnologiyalarni keng joriy qilishda muhim qadamlardan biri hisoblanadi. Loyihadan maqsad:

- mamlakatimiz kimyo sanoatiga eng so'nggi innovatsion va energotejamkor texnologiyalarni olib kirish va shu orqali sohani dekarbonizatsiyalash, yashil texnologiyalarga o'tish;
- mineral o'g'it ishlab chiqarishda tabiiy gazdan foydalanishni qisqartirish va yiliga qariyb 33 million metr kub tabiiy gazni iqtisod qilishdan iborat.



E'tiborli jihati shundaki, yashil vodorod ishlab chiqarish jarayonida atrof-muhitga zararli tashlanmalar chiqarilmaydi, neft yoki tabiiy gaz kabi qazib olinadigan yoqilg'idan foydalanishni kamaytiradi va iqtisod qilish imkonini beradi. Bu esa "Atrof-muhitni muhofaza qilish va "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish yilida ko'zlangan maqsadlarga erishish imkonini beradi.



Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, ushbu loyiha ishga tushilishi bilan O'zbekiston dunyoda yashil vodorod ishlab chiqariladigan 7-mamlakat, MDH mamlakatlari orasida 1-davlat bo'ldi.



"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati